

TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

*2023- yil
yanvar-dekabr*



TOSHKENT VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2024- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning 1- yanvar holatiga viloyatda doimiy aholi soni 3 051,8 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 58,4 ming kishiga yoki 2,0 %ga ko'paydi. Shundan, 1 527,5 ming kishi - shahar joylarida (jami aholi sonining 50,1 %) va 1 524,3 ming kishi - qishloq joylarida (49,9 %) tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

3 051,8 *ming kishi*

Tabiiy o'sish

+57,6 *ming kishi*

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar



50,1%

Qishloq



49,9%

Aholining tabiiy harakati, kishi

2023- yil yanvar-dekabr

	Kishi			1000 aholiga nisbatan	
	2022- yil	2023- yil	o'sish, kamayish, +,-	2022- yil	2023- yil
Tug'ilganlar	73556	73171	-385	24,8	24,2
O'lganlar	14801	15537	736	5,0	5,1
Ko'chib kelganlar	27350	28474	1124	9,2	9,4
Ko'chib ketganlar	32349	27800	-4549	10,9	9,2

	birlik			1000 aholiga nisbatan	
	2022- yil	2023- yil	o‘shish, kamayish, +,-	2022- yil	2023- yil
Nikohlar	23197	21307	-1890	7,8	7,0
Ajralishlar	5080	4826	-254	1,7	1,6

Toshkent viloyati bo‘yicha asosiy demografik ko‘rsatkichlar 2023- yil yanvar-dekabr




Yosh guruhlari bo‘yicha aholi soni



2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, Toshkent viloyatida doimiy aholisi sonining **30,2 %**i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **56,1 %**i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **13,7 %**i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Jinsi bo'yicha aholi tarkibi

2024- yil 1- yanvar holatiga



Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi


1- yanvar holatiga, kishi

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, %da
Viloyat bo'yicha:	2993453	3051761	101,9
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	54130	56186	103,8
Olmalik	141894	145140	102,3
Angren	178517	182455	102,2
Bekobod	102012	104069	102,0
Ohangaron	40718	41349	101,5

	2022- yil	2023- yil	O‘sish sur‘ati, %da
Chirchiq	168032	172955	102,9
Yangiyo‘l	81946	85490	104,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo‘rg‘on	110242	112151	101,7
Ohangaron	109195	111219	101,9
Bekobod	163152	165704	101,6
Bo‘stonliq	175295	176732	100,8
Bo‘ka	132618	134416	101,4
Quyi Chirchiq	114225	115921	101,5
Zangiota	167194	171204	102,4
Yuqori Chirchiq	137376	139185	101,3
Qibray	172927	175383	101,4
Parkent	175193	178217	101,7
Piskent	101743	103011	101,2
O‘rta Chirchiq	134732	137020	101,7
Chinoz	142635	145493	102,0
Yangiyo‘l	196851	199979	101,6
Toshkent	192826	198482	102,9


Viloyat hududida aholi sonining eng ko‘p o‘sishi 2024- yil 1- yanvar holatiga Yangiyo‘l (104,3 %), Nurafshon (103,8 %), Chirchiq (102,9 %) shaharlarida, Toshkent (102,9 %), Zangiota (102,4 %) tumanlarida kuzatildi.

QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR



Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-dekabr, kishi



2023- yil yanvar-dekabr oylarida tug‘ilganlar soni 73 171 kishini tashkil qildi va 2022- yilning shu davriga (73 556 kishi) nisbatan -385 taga kamaygan. Shunga mos ravishda tug‘ilish koeffitsiyenti 24,2 promilleni tashkil qildi.




O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-dekabr, kishi




2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **62,9** %i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,8** %i – o‘simtalardan, **8,9** %i – boshqa kasalliklardan, **7,0** %i baxtsiz hodisa zaharlanish va jarohatlanishlardan, **6,3** %i – nafas olish kasalliklaridan **3,8** %i ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **1,3** %i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan vafot etganlar.

VAFOT ETGANLAR



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti



2023- yil yanvar-dekabr, kishi



2023- yil yanvar-dekabr oylarida 15 537 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 5,1 promilleni tashkil etdi.




QAYD ETILGAN NIKOHLAR


 Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti
 2023- yil yanvar-dekabr, birlik


Nikoh tuzish koeffitsiyentining avvalgi yilga nisbatan eng ko'p pasayishi Yangiyo'l (2,5 promillega) va Olmaliq (2,2 promillega) shaharlarida kuzatildi.




NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-dekabr, birlik




2023- yil yanvar-dekabr oylarida 4 826 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,6 promilleni tashkil etgan.



Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-dekabr



2023- yil yanvar-dekabr oylarida Toshkent viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **49,6%** i farzandsiz, **25,6%** i bitta farzand bilan va **24,8%** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.



Aholining migratsiya ko'rsatkichlari
(yanvar - dekabr)
(kishi)

Hudud nomi	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.
Viloyat bo'yicha:	27350	28474	32349	27800	-4999	674
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	639	917	394	431	245	486
Olmaliq	1470	1500	1279	1507	191	-7
Angren	976	871	1137	884	-161	-13
Bekobod	670	606	757	706	-87	-100
Ohangaron	775	857	422	410	353	447
Chirchiq	2604	2670	1982	2041	622	629
Yangiyo'l	846	1476	615	883	231	593
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	346	299	606	722	-260	-423
Ohangaron	869	871	776	972	93	-101
Bekobod	466	490	918	879	-452	-389
Bo'stonliq	999	852	990	1722	9	-870
Bo'ka	391	257	778	870	-387	-613
Quy Chirchiq	836	797	777	1208	59	-411
Zangiota	2721	3122	6519	2323	-3798	799
Yuqori Chirchiq	1896	1009	1501	1611	395	-602
Qibray	2665	2538	5506	2843	-2841	-305
Parkent	410	454	542	570	-132	-116
Piskent	461	450	828	952	-367	-502
O'rta Chirchiq	1519	1832	2705	1476	-1186	356
Chinoz	980	1092	579	983	401	109
Yangiyo'l	1991	2187	1329	2148	662	39
Toshkent	2820	3327	1409	1659	1411	1668

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinnarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.